

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING HISSIY
INTELEKTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IJTIMOYIY MOSLASHUVNI
TAKOMILLASHTIRISH.**

Olimova Nozima Azim qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.

nozimaolimova671@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21232296>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hissiy intellektini rivojlantirish orqali ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishni tahlilga olamiz.

Bolalarning his tuyg'ularini boshqarishi, muloqoti, va jamoaga moslashuvini yoritamiz.

Dolzarb mavzulardan biri bo'lgan bolalarning hissiy intellektiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, masalan, oilaviy muhit, ta'lim tizimi, va ijtimoiy sharoitning rolini ham tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, hissiy intellekt, ijtimoiy moslashuv, muloqot, oilaviy muhit, pedagogik metod, ta'lim tizimi, empatiy, interfaol.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования социальной адаптации детей дошкольного возраста посредством развития их эмоционального интеллекта в организациях дошкольного образования. Анализируется значение развития у детей навыков понимания и управления своими эмоциями, эффективного общения с окружающими, а также адаптации в коллективе. Также раскрывается роль таких факторов, влияющих на эмоциональный интеллект детей, как семейная среда, образовательный процесс и социальные условия.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, эмоциональный интеллект, социальная адаптация, эмоции, общение, развитие ребёнка, педагогический процесс.

Abstract. This article discusses the issues of developing children's social adaptability through the improvement of emotional intelligence in preschool educational organizations. It analyzes the importance of developing children's abilities to understand and manage their emotions, communicate effectively with others, and adapt to a group environment. The article also highlights the role of factors influencing, such as family environment, educational process, and social conditions.

Keywords: Preschool educational organization, emotional intelligence, social adaptability, emotions, communication, child development, educational process.

KIRISH.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolaning nafaqat aqliy salohiyatini (IQ), balki uning hissiy intellektini (EQ) rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha yoshdagi davr bolaning ijtimoiylashuvi, o'zgaralar bilan muloqotga kirishishi va jamiyatdagi qoidalarni o'zlashtirishi uchun poydevor hisoblanadi.

MTTga ilk bor kelgan bola o'z oilasidan ajralib, yangi ijtimoiy muhitga tushadi. Ushbu davrda bolaning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash bevosita uning o'z his-tuyg'ularini tushunishi va boshqara olishi, ya'ni hissiy intellekti darajasiga bog'liq. Muammoning dolzarbligi Ko'pincha MTT dagi moslashuv (adaptatsiya) jarayonida bolalarda qo'rquv, tajovuzkorlik, yig'loqilik yoki odamovi bo'lib qolish holatlari kuzatiladi. Buning asosiy sababi — bolaning o'z emotsiyalarini idrok eta olmasligi va tengdoshlarining his-tuyg'ularini (empatiya) tushunmasligidir. Hissiy intellektni maqsadli rivojlantirish orqali bolada "men" konsepsiyasi shakllanadi, stressga chidamlilik ortadi va ijtimoiy moslashuv muddati qisqaradi.

Hozirgi zamon jamiyatida bolalarning hissiy intellektini rivojlantirish va uning ijtimoiylashuvi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha insonning hayot sifati hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarga ham uzviy bog'liqdir. Maktabgacha yosh bolaning hissiy rivojlanish davri bo'lib, aynan shu bosqichda unda empatiya, hamkorlik, muloqot madaniyati, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini anglash kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Hissiy intellekt va ijtimoiy moslashuv aloqadorligi Daniel Goleman nazariyasiga ko'ra, hissiy intellekt to'rtta asosiy komponentni o'z ichiga oladi, ularning har biri maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi:

O'z-o'zini anglash: Bola o'zining xursandchilik, xafalik, g'azab kabi tuyg'ularini farqlay oladi.

O'z-o'zini boshqarish: G'azab yoki injiqlik paytida o'zini qo'lga olishni, agressiyani o'yin faoliyatiga yo'naltirishni o'rganadi.

Empatiya: Tengdoshlarining yig'layotgani yoki xursandligini tushunib, ularga hamdard bo'la oladi. Bu do'stona munosabatlar o'rnatishning asosidir.

Munosabatlarni boshqarish (Ijtimoiy ko'nikmalar): Nizoli vaziyatlarni muloqot orqali hal qilish, jamoada ishlash qobiliyati.

Hissiy intellekt – insonning o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish hamda ular bilan samarali muloqot o'rnatish qobiliyatidir. Psixologlar hissiy intellektni shaxs muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri deb hisoblaydilar.

Hissiy intellekt quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

o'z his-tuyg'ularini anglash;

his-tuyg'ularni boshqarish;

ichki motivatsiya;

empatiya;

ijtimoiy ko'nikmalar va samarali muloqot.

Ushbu kompetensiyalar bolalarning jamoada o'zini erkin tutishi va ijtimoiy munosabatlarni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishiga yordam beradi.

Hissiy intellektning rivojlanishi bolalarning ijtimoiy o'zaro munosabatlarini, empatiya his qilish, muammolarni hal etish, o'z his tuyg'ularini boshqarish va stressli vaziyatlarga moslashish qobiliyatini oshiradi. Qolaversa, bola hayotining ilk va muhim bosqichlarida shakllangan hissiy holatlar uning kelajakdagi munosabatlari, o'zini tutushi, hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi va jamiyatga moslashishiga ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarning har bir yosh negizida ma'lum bir ijtimoiy hissiy rivojlanish kompetensiyalari mavjud. Bu kompetensiyalar ilk qadam o'quv dasturida har bir yosh davri uchun belgilab qo'yilgan. 6-7 yosh davrini misol qilib oladigan bo'lsak bu yoshdagi bolalar o'z hissiyotlarini tushunishi boshqarishi va atrofdagi insonlar bilan to'g'ri munosabat o'rnatish lozimdir va bu orqali quyidagi jihatlar shakllanadi;

1. O'z hissiyotlarini anglash. Quvonch, hafa bo'lish, qo'rquv jahl, hissiyotlarini so'z orqali ifodalaydi.

2. Hissiyotlarini boshqarish. Norozilik va xafagarchilik paytida o'zini tinchlantirishni o'rganadi. Kutish sabr qilish kabi ma'lum bir qoidalarga amal qiladi.

3. Boshqalar hissiyotlarini tushunish ya'ni empatiya. Tengdoshi hafa bo'lsa, uni darhol sezadi. Atrofdagi do'stlariga yordam berish ularga dalda berish kabi harakatlarni namoyon qiladi.

4. Muloqot. Maktabgacha yosh davrida bolalar hayotidagi asosiy faoliyat o'yin hisoblanadi. 6-7 yoshli bolalar tengdoshlari bilan o'yin davomida hamkorlik qiladi, jamoaviy ruhni his eta oladi va o'z fikrini bayon etadi.

5. Muammoni hal qilish qobiliyati.

6. O'ziga baho berish. O'zining kuchli va rivojlantirishi kerak bo'lgan tomonlarini anglaydi.

Rag'bat qo'llab- quvvatlash orqali o'ziga ishonchi ortadi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishida bolalarning rivojlantirish uchun mashqlar, o'yinlarni tashkil etish samarali bo'ladi. Amaliy metodlar va o'yinlar MTT pedagog-psixologlari bolalarning EQ darajasini oshirish va moslashuvini osonlashtirish uchun quyidagi usullardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

"Hissiyotlar kubigi" o'yini: Kubikning har bir tomonida turlicha emotsiyalar (kulgi, yig'i, g'azab, hayrat) tasvirlangan bo'ladi. Bola kubikni tashlab, tushgan hissiyotni yuz ifodasi (mimika) orqali ko'rsatib beradi va bu holat qachon sodir bo'lishini aytadi.

Ertak terapiya: Bolalarga his-tuyg'ularini boshqara olgan yoki boshqara olmay qiyinchilikka tushgan qahramonlar haqida ertaklar aytib beriladi va muhokama qilinadi.

Art-terapiya (Rasm chizish): Bolaga "Mening g'azabim" yoki "Mening quvonchim" mavzusida rasm chizdiriladi. Bu orqali salbiy emotsiyalar tashqariga chiqariladi (proyeksiya).

Psixogimnastika: Musiqa ostida turli his-tuyg'ularni tana harakatlari orqali ifodalash mashqlari.

rolli va syujetli o'yinlar;

dramatizatsiya;

"Hissiyotlar kartochkalari" bilan ishlash;

muammoli vaziyatlarni tahlil qilish;

guruhli hamkorlik o'yinlari;

psixologik trening elementlari.

Mazkur metodlar bolalarda o'z his-tuyg'ularini ifodalash, boshqalarni tinglash va tushunish hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijtimoiy moslashuv tushunchasi.

Ijtimoiy moslashuv – bolaning jamiyat qoidalarini qabul qilishi, tengdoshlari va kattalar bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishi, jamoada faol ishtirok etishi va turli hayotiy vaziyatlarga moslasha olishidir.

Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatishicha yuqori hissiy intellektga ega bo'lgan bolalar psixologik bosimlarni osongina yengib o'ta oladilar va ularning bilim olishga va muloqotga bo'lgan qiziqishi anchagina yuqori bo'ladi. Bolalarning hissiy intellektini rivojlanishida maktabgacha ta'lim tashilotining hamda pedagogning o'rnini kattadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hissiy intellektlarini bir qancha samarali usullar orqali takomillashtirish mumkin.

Interfaol o'yinlar. Bolalarga kun boshida quvonch, g'azab aks etgan qiyofali smayliklar ko'rsatib ularning o'zlari qaysi holatda ekanliklarini belgilashni o'rgatish.

Rollarda o'ynash mashqlari.

Ertak qahramonlari yoki hayvonlar hatti harakatlarini sahnalashtirish. Bu orqali bolalar boshqalar o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi orqali bolada empatiya shakllanadi. Qolaversa bu orqali bolalar o'z his tuyg'ularini g'azab, qo'rquv, xursandchilik kabi tuyg'ularini boshqarishni, boshqalarning his tuyg'ulariga tushunib qaray olishni o'rganadi. O'zbekistondagi ilk qadam o'quv dasturida belgilangan talablarga tayangan holda, bolalarning ijtimoiy hissiy kompetensiyalarini rivojlantirish ham mumkin. Bolalarning hissiy intellektiga ta'sir ko'rsatuvchi bir qancha omillar ham mavjud. Bu omillar turlicha bo'lib, ular oilaviy muhit, ta'lim tizimi va ijtimoiy sharoitlardir.

Oilaviy muhit. Bolalar ilk bilimlarini tajribalarini oiladan olishadi. Ota-onasining mehr muhabbati, qo'llab quvvatlashi va tarbiya uslubi boladagi hissiy intellektni rivojlantiradi. Ta'lim tizimi. Maktabgacha ta'lim va umumiy ta'lim tashkilotlari bolaning hissiy rivojlanishida ijtimoiy moslashuvida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda psixologik metodlar orqali hissiy qobiliyatlar shakllanadi.

Ijtimoiy sharoit. Jamiyatdagi insonlarning munosabatlari ya'ni tengdoshlari aka ukalari atrofidagi yaqinlari bilan o'zaro aloqa hissiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot maktabgacha ta'lim tashkilotining 6–7 yoshli tarbiyalanuvchilari ishtirokida amalga oshirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

kuzatish metodi;

suhbat metodi;

pedagogik tajriba-sinov;

diagnostik baholash;

taqqoslash va statistik tahlil.

Tajriba jarayonida 20 nafar bola ishtirok etdi. Ular tajriba va nazorat guruhlariga teng taqsimlandi.

Tajriba guruhida 3 oy davomida quyidagi mashg'ulotlar muntazam olib borildi:

emotsiyalarni tanish va ifodalash mashqlari;

rolli o'yinlar;

"Hissiyotlar kartochkasi";
ertak terapiyasi;
art-terapiya;
jamoaviy ijodiy faoliyat;
konfliktli vaziyatlarni hal etishga oid o'yinlar.
Nazorat guruhida esa odatiy ta'lim dasturi asosida mashg'ulotlar davom ettirildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tajriba yakunida bolalarning hissiy intellekti va ijtimoiy moslashuv darajasi qayta baholandi.

Dastlabki diagnostika natijalariga ko'ra:

yuqori daraja – 27%;
o'rta daraja – 45%;
past daraja – 28%.

Tajriba yakunida esa tajriba guruhida quyidagi natijalar kuzatildi:

yuqori daraja – 65%;
o'rta daraja – 30%;
past daraja – 5%.

Nazorat guruhida esa o'zgarishlar sezilarli bo'lmadi:

yuqori daraja – 35%;
o'rta daraja – 45%;
past daraja – 20%.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogic mashg'ulotlar bolalarning:

empatiya ko'nikmalarini;
muloqot madaniyatini;
jamoada ishlash malakasini;
nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish qobiliyatini;
yangi muhitga moslashish darajasini sezilarli darajada yaxshiladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar hissiy intellekt va ijtimoiy moslashuv o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Tarbiyachilar tomonidan hissiy rivojlanishga qaratilgan metodlarning muntazam qo'llanilishi bolalarning psixologik barqarorligini hamda maktabga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning hissiy entelektini rivojlantirish orqali ularning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy hayotida o'z o'rnini topishiga bevosita yordam beradi. Tadqiqot davomida shuni tushundimki, bolalarning hissiy rivojlanishida oilaviy muhit, pedagogning yondashuvi ta'lim tarbiya jarayoni katta rol o'ynaydi.

Mehribonlik, qo'llab- quvvatlash, o'yinlar, va turli pedagogik metodlar orqali bolalarda empatiya o'ziga ishonch va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim pedagogi nafaqat bolalarga bilim beruvchi ularni hissiy dunyosini tushunuvchi va uni rivojlantira oluvchi shaxs bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim jarayonida bolalarning hissiy intellektini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

hissiy intellekt ijtimoiy moslashuvning asosiy omillaridan biridir;

maktabgacha yosh davrida hissiy intellektni rivojlantirish eng samarali davr hisoblanadi;

rolli o'yinlar, art-terapiya va ertak terapiyasi yuqori samaradorlikka ega;

hissiy intellektni rivojlantirish bo'yicha maxsus metodik dasturlarni maktabgacha ta'lim amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq. Ta'lim tashkilotlarida hissiy intellektni rivojlantirish bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashning eng muhim pedagogik shartlaridan biridir. Hissiy jihatdan rivojlangan bola jamoada o'z o'rnini topa oladi, sog'lom muloqot olib boradi, o'z his-tuyg'ularini boshqaradi va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayoniga hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goleman. D. (1995). Emotional Intelligence; Why It Can Matter More Than IQ. Bantam Books.
2. O'zbekiston Respublikasi `Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni.
3. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya.
4. Maktabgacha pedagogika; darslik. Toshkent.
5. Educational Implications (pp. 3-31). Basic Books.